

**OMMAVIY AXBOROT VOSITALARIDA YOSHLAR HAYOTINI YORITISHNING  
O'ZIGA XOS XUSUSIYATI (TELEVIDENIE MISOLIDA)**

**Dilyafroz Jumamuratova**

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq Davlat Universiteti Qoraqalpoq filologiyasi va Jurnalistika  
fakulteti talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.12533933>

**Annotatsiya.** Ushbu ilmiy maqolamizda biz yoshlar hayoti va ularga yaratilgan imkoniyatlarni keng ommaga taqdim etishda ommaviy axborot vositalarining rolini televideniye misolida o'rganamiz.

**Kalit so'zlar:** "Yoshlar telekanali", OAV, "Yurt kelajagi", "Muvaffaqiyat kaliti", "Nuqtai nazar", "Renessans telekanali", "Davr mavzusi". Jaslar Tv telekanali, "Qaraqalpaqstan Online" informatsion dasturi.

**THE PECULIARITY OF COVERING THE LIFE OF YOUNG PEOPLE IN MASS  
MEDIA (IN THE EXAMPLE OF TELEVISION)**

**Abstract.** In this scientific article, we will study the role of mass media in presenting the life of young people and the opportunities created for them to the general public, using the example of television.

**Keywords:** "Yoshlar TV channel", mass media, "Yurt kalajagi", "Key to success", "Point of view", "Renaissance TV channel", "Theme of the era". Jaslar TV channel, "Karakalpakstan Online" informational program.

**ОСОБЕННОСТЬ ОСВЕЩЕНИЯ ЖИЗНИ МОЛОДЕЖИ В СРЕДСТВАХ  
МАССОВОЙ ИНФОРМАЦИИ (НА ПРИМЕРЕ ТЕЛЕВИДЕНИЯ)**

**Аннотация.** В данной научной статье мы на примере телевидения изучим роль средств массовой информации в представлении широкой публике жизни молодежи и созданных для нее возможностей.

**Ключевые слова:** «Телеканал «Ёшлар», средства массовой информации, «Юрт каладжаги», «Ключ к успеху», «Точка зрения», «Телеканал «Ренессанс», телеканал «Тема эпохи», информационный «Каракалпакстан онлайн». программа.

---

Bugungi kunda yurtimiz aholisining 60 foizdan ziyodini yoshlar tashkil etadi. Bu esa mamlakatimiz kelajagi bo'lgan yosh avlodni har tomonlama yetuk, bilimli, salohiyatli shaxs va komil inson sifatida tarbiyalash masalasi doimo eng ustuvor vazifalarning biri sifatida belgilanishidan darak beradi.

Prezidentimiz yoshlar hayotini o'rganish, ularga qulay shart-sharoitlarni yaratish, masalalariga yechim topish kabi islohotlarni davlat siyosati darajasiga ko'tarishi ham bejiz emas. Sababi yosh avlod- har bir yurt va millatning boyligi, buyuk salohiyat egasi va kuch-qudrati manbai hisoblanadi. Bugungi kunda yoshlarimizni yuksak ma'naviyatli, zukko, yurt taqdirini o'z zimmasiga olishga qodir avlod sifatida voyaga yetkazish uchun keng imkoniyatlar yaratilgan. Bundan oqilona foydalanayotgan, ertamiz egalari bo'lgan yoshlar esa, o'z intilish, iste'dod va qiziqishlarini bir maqsadga yo'naltirib, yuqori marralarni zabt etib kelmoqda. Yoshlar hayoti bilan yaqindan tanishish, ularning yutuq va masalalarini har tomonlama o'rganish va ularni keng ommaga taqdim etishda ommaviy axborot vositalarining o'rni beqiyos. Sababi hozirgi kunda prezidentimiz tarafidan yoshlarga qaratilayotgan alohida e'tibor va imkoniyatlarni tezkor tarzda yoshlar e'tirofiga yetkazishda O'zbekistonda faoliyat yuritib kelayotgan barcha gazeta, jurnal, televideniye va radio kanallarining asosiy mavzusi- yoshlar turmushi hisoblanadi. Qaysi sohani olmaylik, qaysi jabhaga nazar solmaylik, yoshlarimiz har bir ishda o'zining kreativ fikr va g'oyalari bilan ko'zga tashlanayotganini ko'rishimiz mumkin. Bu kabi intilishlarni keng ommaga yetkazishda O'zbekiston MTRK, asosan Yoshlar telekanali o'z maqsad, vazifalari bilan ajralib turadi.

Yoshlar telekanali O'zbekiston MTRK "Yoshlar telekanali aksiyadorlik jamiyati" tomonidan 1998-yil 1-sentyabrda tashkil etilgan. Faoliyatini boshlagan ilk kundan to hozirgi kungacha yoshlarga oid davlat siyosatini tomoshabinlar e'tiboriga taqdim etishda peshqadamlik qilib kelmoqda.

"Yoshlar" teleradiokanali faoliyatining asosiy yo'nalishlari va vazifalari quyidagilardan iborat :

- yoshlarga oid davlat siyosatini keng targ'ib etish ;
- O'zbekiston Respublikasi hayotida ro'y berayotgan ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar va mazkur jarayonlarda yoshlarning ishtirokini ta'minlash va keng yoritish ;
- Yosh avlodni vatanga muhabbat va umumbashariy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash.

Yoshlar turmushiga oid olib borilayotgan islohotlarni ushbu telekanal orqali namoyish etilayotgan: "Muvaffaqiyat kaliti", "So'z yoshlarga", "Nuqtai nazari", "Davr mavzusi", "Yurt kelajagi", "Fan va yoshlar" kabi ko'rsatuvlarda ko'rishimiz mumkin.

Masalan: "Davr mavzusi", "Nuqtai nazar" ko'rsatuvlari o'z namoyishida yoshlar hayotida yuzaga kelayotgan masala va kamchiliklarni har tomonlama o'rganish va ularga ijobiy yechim topishni maqsad qilgan bo'lsa,

mana shu masalalarga yoshlarning munosabatini va fikrini hisobga olish kabi vazifalarni "So'z yoshlarga" ko'rsatuvi o'zida mujassam etgan.

Yurtimizda olib borilayotgan islohotlar va ularda bevosita yoshlar ishtrokini taminlash va shu orqali ularning jamiyatdagi o'rnini belgilash, o'z zehni va ilmga chanqoqliligi bilan tengdoshlariga o'rnak bo'layotgan yoshlarning yutuqlarini keng ommaga taqdim etishda "Muvaffaqiyat kaliti" ko'rsatuvi asosiy o'rinni egallaydi.

XXI asr axborot asri. Bu davrda jahonda yaratilayotgan yangi texnologiyalardan tezkor xabardor bo'lish va bu yangiliklarni yurtimiz hayotiga olib kelish uchun yoshlarimiz tinmay o'z izlanishlarini olib borishmoqda. Mana shunday eng so'nggi yangiliklar Rennessans telekanali "IT-News" informatsion dasturi orqali namoyish etilib kelinmoqda. Bu ko'rsatuvda aniq fanlarga asoslangan Muhammad Al-Xorazmiy nomidagi o'rta va yuqori ta'lim muassasalari va ularda ta'lim olayotgan yoshlarning yangi ixtirolari haqida so'z yuritiladi.

Har bir ilmga chanqoq, bilimli yoshlar jamiyatda o'z o'rniga ega bo'lishadi. Prezidentimiz tashabbusi bilan bir necha yillardan buyon "Yosh kitobxon" tanlovining hududiy va respublika bosqichlari o'tkazilib kelinmoqda. Bu jarayonlar ham Yoshlar telekanali "Yosh kitobxon" ko'rsatuvi orqali efirga uzatilib kelinmoqda. Bu kabi tanlovlarni yoshlar o'rtasida o'tkazish va uni keng ommaga targ'ib etishdan asosiy maqsad-yosh avlodni kitob o'qishga o'rgatish va ularning kitobga bo'lgan intilishini yanada oshirishdan iborat.

Shu bilan birgalikda Jaslar Tv telekanalida efirga uzatilib kelayotgan "Qaraqalpaqstan Online" informatsion dasturi orqali yoshlar hayotida ro'y berayotgan eng so'nggi yangilik va o'zgarishlardan xabardor bo'lishimiz mumkin.

Bundan tashqari O'zbekistonda faoliyat yuritib kelayotgan barcha telekanallarda yoshlar turmushi uchun ixtisoslashgan ko'rsatuvlarni tomosha qilishingiz mumkin.

Bu kabi yoshlar hayotiga oid ilmiy, ma'rifiy va ma'naviy ko'rsatuvlarni tashkil etish va ularning bosh qahramoni etib, yoshlarni ta'yinlashdan asosiy maqsad-yosh avlodni bilimli, ilmi, yetuk shaxs va yuqori manaviyat egalari qilib tarbiyalashdan iborat. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev:

"Xalqimizning ulug'vor qudrati jo'sh urgan hozirgi zamonda O'zbekistonda yangi bir uyg'onish – Uchinchi Renessans davri poydevori yaratilmoqda, desak, ayni haqiqat bo'ladi. Chunki bugungi O'zbekiston kechagi O'zbekiston emas. Bugungi xalqimiz ham kechagi xalq emas. Uchinchi Renessans davrini yoshlar bilan birgalikda barpo etamiz", deydi davlat rahbari. Shu sababli ham bu yo'lga qadam tashlagan barcha tashkilot va muassasalar, OAV vakillari

ham yoshlar hayotini yoritishda davom etar ekan, demak bu yoshlarga o'z ustida ishlashiga ruhiy tarafdin o'zgacha shukuh bag'ishlaydi.

#### REFERENCES

1. Yoshlar kelajagimiz va istiqbolimiz poydevori. **Oqdaryo ovozi.uz. 07.07.2023**
2. Yoshlar telekanali. "Davr mavzusi" ko'rsatuvi.
3. Yoshlar telekanali. "Nuqtai nazar" ko'rsatuvi.
4. Yoshlar telekanali. " Muvaffaqiyat kaliti " ko'rsatuvi.
5. Yoshlar telekanali. "Yurt kelajagi" ko'rsatuvi.
6. Yoshlar telekanali. " So'z yoshlarga" ko'rsatuvi.
7. Rennessans telekanali. "IT-News" informatsion dasturi.
8. Jaslar Tv telekanali. "Qaraqalpaqstan Online" informatsion dasturi.